



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(3)


2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 356 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini o'rganish	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiov Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinova</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboyevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmira Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech..... 184 Turumbetova Aygul Yusupbaevna	184
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi 189 Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	189
	Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish 191 Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	191
	Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi..... 195 Ermatova Robiya Bekjonali qizi	195
	The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education 199 Ismailova Shaira Ferdausovna	199
	Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners 204 Maqsudova Gulnoz Olimovna	204
	Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms 208 Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	208
	Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching 212 Sharipova Muhabbat Erkinovna	212
	Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili..... 216 Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	216
	Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv 222 Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	222
	O'qituvchilarning qadriyatlarini va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili 227 Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	227
	Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida 229 Safarova Madina Azamat qizi	229
	Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности..... 233 Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	233
	Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века 239 Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Ғолиб	239
	Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана 242 Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	242
	Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining asosiy shakllari 245 Abdulkarimov Nurmaxan Amirxanovich	245
	Orol bobo obrazi orqali inson va tabiat birligining talqini 249 Hayotova Diyora Hamid qizi	249
	Yosh taekvondochilarda (10–12 yoshli) kuch, tezkorlik va ephillik sifatlarini takomillashtirish metodikasi .. 254 Iminova Z. B., Nazarova M. A.	254
	Oliy ta'lim muassasasi kafedra mudirlarida liderlik xususiyatini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar 258 Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna	258
	Mediafalsafaning oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari va pedagogik funksiyalari 265 Mirabdullayev Izzatillo Isroiljon o'g'li	265
	Maktabgacha ta'lim tashkiloti kun tartibini to'g'ri tashkil etishda tarbiyachining roli..... 271 Muminova Gulasal Baxodirovna	271
	Soft Skills yondashuvi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish 275 Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi	275
	Tasviriy faoliyat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish .. 280 Sadirova Kamola Giyozovna	280



Inklyuziv ta'lim sharoitida maxsus pedagogik metodlar orqali o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash.....	284
<i>Suyunova Kamola Jamshed qizi, Suvonova Kamola Rayimkulovna</i>	
Web-dizayn texnologiyalari asosida bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining raqamli kompetentligini shakllantirish metodikasi	287
<i>Ulmasbek Abdubanapovich Yuldashev, Prof. Dr. Ayhan Istanbulu</i>	
O'smirlar axloqiy rivojlanishining psixologik determinantlari va ularni takomillashtirish mexanizmlari	293
<i>Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</i>	
Oliy ta'limda o'zbek tili fanini o'qitish: muammo va yechimlar	297
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Folklor motivlarining bolalar xarakteri shakllanishidagi o'rni.....	300
<i>Safarova Nigora Oxunjonovna, Sayfilloyeva Jasmina Jahongirovna</i>	
Kreativ pedagogga qo'yiladigan talablar va uni shakllantirish bosqichlari.....	304
<i>Abdialimova Maxfuza Safarboy qizi</i>	
Biologiya darslarida STEM va biotexnologiya integratsiyasining nazariy poydevori	307
<i>Abdusamatov Abduqodir Norqul o'g'li</i>	
The Effectiveness of Project-Based Learning in Developing 21 st -Century Skills Among EFL Learners	314
<i>Axmatova Munisa Orif qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning o'yin faoliyati asosida ijtimoiylashuvi.....	320
<i>P. M. Pulatova, El'muradova Madina Yangiboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini xalq og'zaki ijodi asosidagi didaktik o'yinlar orqali rivojlantirishning lingvopsixologik va tarbiyaviy mexanizmlari.....	326
<i>Muqimova Gullola Qobil qizi, Sultonov Humoyun Ulug'murodovich</i>	
Tillarni o'qitish jarayonini modellashtirishning metodologik asoslari.....	330
<i>Nurkeldi Jarasbayev</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining informatika ta'limidagi o'rni va ahamiyati	334
<i>Abdullayev Abubakir Narzullayevich, Xurozboyeva Sevinch Abror qizi</i>	
Научно-методологические основы организации психопрофилактической и психокоррекционной работы в практической психологии	337
<i>Ядгарова Озода Ибрагимовна</i>	
Raqamli ta'lim muhitida birlamchi manbalar bilan ishlashning sun'iy intellektga asoslangan pedagogik-metodik mexanizmlari	342
<i>Yursinboyev Jaxongir Mexrojiddin o'g'li</i>	
Zamonaviy biologiyada umumiy genetikaning o'rni va istiqbollari	348
<i>Ko'bayev Jurabek Eshmamatovich</i>	
Разработка системы мониторинга информационной безопасности для высших учебных заведений...	352
<i>Хамроев Шохбоз Султонмуродович</i>	

TILLARNI O'QITISH JARAYONINI MODELLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Nurkeldi Jarasbayev

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tillarni o'qitish jarayonini modellashtirishning metodologik asoslari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim makonida chet tillarini, ona tilini va kasbiy yo'naltirilgan tilni o'qitish samaradorligini oshirish ko'p jihatdan o'quv jarayonining puxta loyihalashtirilgan modeliga bog'liq. Shu bois maqolada modellashtirish tushunchasining mohiyati, uning pedagogik tadqiqotlardagi o'rni, didaktik tizim bilan o'zaro aloqasi hamda til o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodologik yondashuvlar yoritiladi. Xususan, tizimli, kompetensiyaviy, kommunikativ, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan va integrativ yondashuvlarning model yaratishdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, maqolada til o'qitish jarayonini modellashtirishning tarkibiy komponentlari, ya'ni maqsad, mazmun, metod, vosita, subyektlararo munosabat, baholash va natija o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida tillarni o'qitish jarayonini modellashtirish faqat nazariy konstruktsiya emas, balki amaliy samaradorlikni ta'minlaydigan ilmiy asoslangan pedagogik mexanizm ekani xulosalanadi.

Kalit so'zlar: tillarni o'qitish, pedagogik modellashtirish, metodologik asoslar, ta'lim jarayoni, kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ yondashuv, didaktik model, o'quv faoliyati, til kompetensiyasi, pedagogik texnologiya.

Abstract: This article analyzes the methodological foundations of modeling the language teaching process from a scientific and pedagogical perspective. In the modern educational environment, improving the effectiveness of teaching foreign languages, the native language, and professionally oriented language instruction largely depends on a well-designed model of the educational process. Therefore, the article highlights the essence of the concept of modeling, its role in pedagogical research, its relationship with the didactic system, and the methodological approaches used in language teaching. In particular, the significance of system-based, competency-based, communicative, activity-based, learner-centered, and integrative approaches in developing educational models is revealed. The article also substantiates the interrelationship between the structural components of language teaching process modeling, namely goals, content, methods, tools, subject-to-subject interaction, assessment, and outcomes. The research concludes that modeling the language teaching process is not merely a theoretical construct but a scientifically grounded pedagogical mechanism that ensures practical effectiveness.

Key words: language teaching, pedagogical modeling, methodological foundations, educational process, competency-based approach, communicative approach, didactic model, learning activity, language competence, pedagogical technology.

Аннотация: В данной статье с научно-педагогической точки зрения анализируются методологические основы моделирования процесса обучения языкам. В современном образовательном пространстве повышение эффективности обучения иностранным языкам, родному языку и профессионально ориентированному языку во многом зависит от тщательно разработанной модели образовательного процесса. В связи с этим в статье раскрываются сущность понятия моделирования, его роль в педагогических исследованиях, взаимосвязь с дидактической системой, а также методологические подходы, применяемые в процессе обучения языкам. В частности, показано значение системного, компетентностного, коммуникативного, деятельностного, личностно-ориентированного и интегративного подходов при создании модели обучения. Кроме того, обоснована взаимосвязь структурных компонентов моделирования процесса обучения языкам, а именно целей, содержания, методов, средств, субъект-субъектных отношений, оценки и результатов. В результате исследования сделан вывод о том, что моделирование процесса обучения языкам представляет собой не только теоретическую конструкцию, но и научно обоснованный педагогический механизм, обеспечивающий практическую эффективность.

Ключевые слова: обучение языкам, педагогическое моделирование, методологические основы, образовательный процесс, компетентностный подход, коммуникативный подход, дидактическая модель, учебная деятельность, языковая компетенция, педагогическая технология.



KIRISH

Globalashuv, xalqaro akademik integratsiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi tillarni o'qitish tizimiga yangicha talablarni qo'yimoqda. Endilikda tilni o'qitish faqat grammatik qoidalar va lug'aviy birliklarni o'zlashtirish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning kommunikativ, ijtimoiy-madaniy, kasbiy va strategik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi murakkab pedagogik tizim sifatida qaralmoqda. Shu sababli til ta'limi jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, uni oldindan loyihalash va natijadorligini prognozlash zarurati ortib bormoqda.

Pedagogik modellashtirish ana shu ehtiyojdan kelib chiqadigan muhim ilmiy-amaliy vosita hisoblanadi. Modellashtirish yordamida ta'lim jarayonining ichki tuzilmasi, elementlari o'rtasidagi bog'lanishlar, ta'sir etuvchi omillar va kutilayotgan natijalar tizimli ravishda ifodalanadi. Tillarni o'qitish jarayonini modellashtirish ayniqsa dolzarb bo'lib, bunda o'quv maqsadlari, mazmun, metodlar, vositalar, o'qituvchi va talaba faoliyati, baholash mezonlari yagona tizim sifatida ko'rib chiqiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi tillarni o'qitish jarayonini modellashtirishning metodologik asoslarini ochib berish, uning nazariy manbalarini tahlil qilish hamda til ta'limi tizimida qo'llashning ilmiy-pedagogik imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tillarni o'qitish jarayonini modellashtirish masalasi lingvodidaktika va pedagogika fanlarida keng o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biridir.

Xususan, I.L. Bim xorijiy tillarni o'qitish metodikasida ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish va modellashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan.

A.A. Leontyev faoliyat nazariyasi asosida til o'rganishni kommunikativ faoliyatning tarkibiy qismi sifatida talqin etib, nutqiy faoliyatni shakllantirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

E.I. Passov kommunikativ yondashuv nazariyasini rivojlantirib, tilni o'qitishda real muloqot vaziyatlariga asoslangan modellarni qo'llash zarurligini ta'kidlagan.

I.A. Zimnyaya esa kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslarini ishlab chiqib, ta'lim natijalarini amaliy kompetensiyalar orqali baholash masalasiga alohida e'tibor qaratgan.

O'zbekistonlik olimlardan N.A. Muslimov, B.X. Xodjayev va A.A. Abduqodirovlarning ilmiy ishlarida pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lim modellari hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish masalalari yoritilgan. Mazkur tadqiqotlar tillarni o'qitish jarayonini modellashtirishning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tillarni o'qitish jarayonini modellashtirishda tizimli, kommunikativ, faoliyatga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar muhim metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik modellashtirish ilmiy bilishning universal metodlaridan biri bo'lib, u murakkab obyekt, hodisa yoki jarayonning muhim xususiyatlarini soddalashtirilgan, biroq mazmunan adekvat shaklda aks ettirishga xizmat qiladi. Pedagogika fanida model real ta'lim jarayonining tuzilishi, funksiyasi va rivojlanish mexanizmini ifodalovchi nazariy-amaliy konstruksiya sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtayi nazardan, tillarni o'qitish jarayonini modellashtirish pedagogik voqelikni shunchaki tavsiflash emas, balki uni ilmiy asosda tushuntirish, loyihalash, boshqarish va takomillashtirish imkonini beradigan samarali vositadir. Til ta'limi jarayonida model o'quv jarayonining konseptual asoslarini belgilaydi, uning tarkibiy qismlarini o'zaro bog'langan tizim sifatida ko'rishga yordam beradi hamda kutilayotgan natijalarni oldindan prognozlash, baholash va zarur hollarda tuzatish mexanizmlarini ishlab chiqishga sharoit yaratadi. Shu sababli modellashtirish til o'qitishni intuitiv yoki faqat tajribaga asoslangan boshqaruvdan ilmiy asoslangan boshqaruv bosqichiga olib chiqadi.

Tillarni o'qitish jarayonini modellashtirish samaradorligi, avvalo, uning metodologik asoslari qanchalik puxta tanlanganiga bog'liq. Mazkur jarayonda bir necha ilmiy yondashuvlar o'zaro uyg'un holda amal qiladi. Eng avvalo, tizimli yondashuv til o'qitish jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqishni talab etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl, nazorat va natija bir-biri bilan uzviy bog'langan komponentlar bo'lib, ulardan biridagi o'zgarish qolgan qismlarning holatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun til ta'limi modeli ichki mantiqqa ega bo'lishi, uning elementlari o'rtasidagi funksional aloqalar aniq belgilanishi va bu aloqalar umumiy pedagogik natijaga xizmat qilishi lozim.

Zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv ham til o'qitishni modellashtirishning muhim metodologik tayanchlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv bilimlarning oddiy yig'indisini emas, balki o'quvchining real kommunikativ vaziyatlarda ulardan foydalana olish qobiliyatini markazga qo'yadi. Shu bois modelda faqat til tizimiga oid nazariy bilimlar emas, balki nutqiy, sotsiologiyistik, pragmatik va strategik kompetensiyalarni shakl-

lantirish mexanizmlari ham alohida aks etishi zarur. Bunda til o'rganuvchining bilimni eslab qolishi emas, uni amaliy vaziyatlarda mustaqil va maqsadga muvofiq qo'llashi asosiy natija sifatida qaraladi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv modelning maqsadli va natijaviy komponentlarini yangicha mazmun bilan boyitadi.

Til ta'limini modellashtirishda kommunikativ yondashuv ham alohida o'rin tutadi. Chunki til, avvalo, muloqot vositasi sifatida mavjud bo'ladi va uni o'qitish jarayoni ham real muloqot ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Kommunikativ yondashuv asosida qurilgan modelda til materiali alohida grammatik qoidalar yoki lug'aviy birliklar majmui sifatida emas, balki muayyan nutqiy vaziyatlar bilan bog'liq holda o'zlashtiriladi. Bunday sharoitda dars mazmuni, topshiriqlar tizimi, mashqlar xarakteri va baholash mezonlari ham kommunikativ maqsadlarga xizmat qilishi talab etiladi. Natijada o'quvchi til birliklarini formal o'rganish bilan cheklanmaydi, balki ularni tabiiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muloqot jarayonida qo'llash ko'nikmasini egallaydi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv tilni egallashni faol o'quv-bilish va nutqiy faoliyatning mahsuli sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuv asosida ishlab chiqilgan modelda o'quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi obyekt emas, balki ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda modellashtirishda o'quv faoliyatining motivatsion, mazmuniy, operatsion va refleksiv bosqichlarini hisobga olish muhimdir. O'quvchining ichki ehtiyoji, qiziqishi, mustaqil izlanishi va o'z faoliyatini tahlil qila olishi modelning samaradorligini belgilovchi omillardan hisoblanadi. Bu esa o'qituvchining rolini ham o'zgartiradi: u bilim beruvchi yagona manbadan ko'ra ko'proq tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va pedagogik jarayonni muvofiqlashtiruvchi subyektga aylanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tillarni o'qitish modelini ishlab chiqishda har bir o'quvchining individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari va til o'zlashtirish sur'atini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Chunki barcha o'quvchilar bir xil tayyorgarlik, motivatsiya yoki qabul qilish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun ilmiy asoslangan model differensial ta'lim elementlarini, moslashuvchan topshiriqlar tizimini, individual o'quv trayektoriyalarini va refleksiv baholash mexanizmlarini o'z ichiga olishi kerak. Bunday model orqali o'quvchining shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, uning ta'lim jarayonidagi subyektiv mavqeini mustahkamlash va o'zini o'zi rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini rag'batlantirish mumkin bo'ladi.

Integrativ yondashuv esa til o'qitishni boshqa fanlar, madaniy kontekst va kasbiy faoliyat bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqish imkonini beradi. Ayniqsa, bugungi kunda akademik va kasbiy kommunikatsiya ehtiyojlari ortib borayotgan bir sharoitda til ta'limini boshqa bilim sohalari bilan integratsiyalash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv asosida yaratilgan model tilni alohida predmet sifatida emas, balki shaxsning umumiy intellektual, madaniy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin qiladi. Natijada til ta'limining mazmuni yanada kengayadi, o'quv materiallari hayotiy va kasbiy vaziyatlarga yaqinlashadi, o'qitishning amaliy ahamiyati esa ortadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tillarni o'qitish jarayonining ilmiy modeli, odatda, bir-biri bilan uzviy bog'langan bir necha tarkibiy komponentlardan tashkil topadi. Avvalo, modelning maqsadli komponenti til o'qitishning strategik va operativ maqsadlarini belgilaydi. Strategik maqsad o'quvchida mukammal til kompetensiyasini shakllantirishdan iborat bo'lsa, operativ maqsadlar muayyan mavzu, nutq faoliyati turi, til materiali yoki amaliy ko'nikmani bosqichma-bosqich egallashga qaratiladi. Maqsadlarning aniq va ilmiy asoslangan belgilanishi modelning qolgan barcha komponentlarini samarali loyihalashga zamin yaratadi.

Mazmuniy komponent til materiallari, nutqiy mavzular, kommunikativ vaziyatlar, madaniy axborotlar va zarur hollarda kasbiy yo'naltirilgan kontentni o'z ichiga oladi. Mazmunni tanlash jarayonida lingvodidaktik tamoyillar, ta'lim bosqichi, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi hamda jamiyat ehtiyojlari hisobga olinadi. Mazmun nafaqat til birliklarini o'rgatishga, balki ularni kommunikativ faoliyatda qo'llashga imkon beradigan tarzda tanlanishi kerak. Shundagina til ta'limi nazariy bilimlar yig'indisidan real amaliy kompetensiya hosil qiluvchi jarayonga aylanadi.

Modelning protsessual komponenti metodlar, usullar, ta'lim shakllari va pedagogik texnologiyalarni qamrab oladi. Ushbu komponentda an'anaviy va innovatsion metodlarning o'zaro uyg'unligi, interfaol yondashuv, loyiha metodi, muammoli ta'lim, raqamli vositalardan foydalanish, mustaqil ta'lim va hamkorlikdagi o'qitish texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Protsessual komponent modelning amaliy ishlash mexanizmini belgilab beradi, ya'ni maqsad va mazmun qanday pedagogik vositalar orqali natijaga aylanishini ko'rsatadi. Aynan shu komponent orqali til o'qitish jarayonining dinamikasi, bosqichlari va tashkiliy shakllari aniqlanadi.

Subyektli komponent ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tavsiflaydi. Zamonaviy pedagogik qarashlarga ko'ra, o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikdagi faol subyektlar sifatida maydonga chiqadi. O'qituvchi pedagogik jarayonni tashkil etadi, motivatsion muhit yaratadi, ta'lim faoliya-



tini yo'naltiradi va zarur metodik ko'mak beradi. O'quvchi esa bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni faol ravishda egallovchi, qayta ishlovchi, amaliyotda qo'llovchi va refleksiya qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Shunday yondashuv til o'qitish modelining insonparvar va interaktiv tabiatini kuchaytiradi.

Baholash-natijaviy komponent modelning yakuniy samaradorligini aniqlashda muhim o'rin egallaydi. Mazkur komponent til kompetensiyasining shakllanish darajasi, o'quv natijalari, baholash mezonlari va monitoring mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Diagnostik, joriy, oraliq va yakuniy baholash turlari orqali o'quvchining rivojlanish dinamikasi aniqlanadi, modelning kuchli va zaif tomonlari yuzaga chiqariladi hamda zarur hollarda tuzatishlar kiritiladi. Shu tariqa baholash faqat nazorat vositasi bo'lib qolmay, balki ta'lim jarayonini takomillash-tirishga xizmat qiluvchi tahliliy va boshqaruv mexanizmiga aylanadi.

Tillarni o'qitish jarayonini modellashtirish muayyan didaktik tamoyillarga tayangan holda amalga oshiriladi. Ilmiylik tamoyili modelning nazariy jihatdan asoslangan bo'lishini, ya'ni u pedagogika, psixologiya, lingvis-tika va lingvodidaktikaning zamonaviy yutuqlariga tayanishini talab etadi. Tizimlilik va izchillik tamoyili esa til materialining bosqichma-bosqich, mantiqiy ketma-ketlikda o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Amaliy yo'naltirilganlik tamoyili o'rganilgan bilimlarning real nutqiy faoliyatda qo'llanilishini ko'zda tutadi va shu orqali ta'limning hayot bilan bog'liqligini kuchaytiradi. Ongli faollik tamoyili o'quvchining ichki motivatsiyasi va faol ishtirokiga tayanadi, ko'rgazmalilik hamda texnologik ta'minot tamoyili esa multimediyaga vositalari, raqamli platformalar, autentik mate-riallar va interaktiv resurslardan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Moslashuvchanlik tamoyili esa modelni konkret auditoriya, ta'lim bosqichi va o'quv maqsadlaridan kelib chiqib variativ shaklda qo'llash imkonini beradi.

Tillarni o'qitish jarayonini modellashtirishning amaliy ahamiyati nihoyatda kengdir. Avvalo, u ta'lim jarayonini oldindan loyihalash, resurslarni oqilona taqsimlash va kutilayotgan natijalarni aniq belgilash imkonini beradi. Shu bilan birga, model o'qituvchi faoliyatini maqsadli tashkil etishga, metod tanlashni asoslashga va baholash jarayonini me'yordashirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, modellashtirish o'quvchilarning til o'zlashtirish dinamikasini kuzatish, individual yondashuvni kuchaytirish, tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish va pedagogik innovatsiyalarning samaradorligini aniqlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhitida til o'qitish modelini ishlab chiqish masofaviy ta'lim, aralash ta'lim va adaptiv o'qitish texnologiyalarini samarali tatbiq etishda alohida dolzarblilik kasb etadi. Shunday qilib, modellashtirish nafaqat nazariy konstruktsiya, balki ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tillarni o'qitish jarayonini modellashtirish zamonaviy lingvodidaktika va pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U ta'lim jarayonining nazariy asoslarini tizimlashtirish, amaliy mexanizmlarini takomillashtirish hamda kutilayotgan natijalarni ilmiy asosda prognozlash imkonini beradi. Modellashtirishning metodologik bazasini tizimli, kompetensiyaviy, kommunikativ, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan va integrativ yondashuvlar tashkil etadi.

Shu asosda yaratilgan pedagogik model til o'qitishning maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, subyekt-lari va natijalarini yagona didaktik tizimga birlashtiradi. Natijada til ta'limining samaradorligi, boshqaruvchanligi va amaliy yo'naltirilganligi kuchayadi. Demak, tillarni o'qitish jarayonini modellashtirish nafaqat nazariy ilmiy muammo, balki ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi strategik pedagogik mexanizm sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva, N. N. (2019). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Fan va texnologiya.
2. Ishmuhamedov, R. J., & Yo'ldoshev, M. (2020). Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Nihol.
3. Бим, И. Л. (1988). Теория и практика обучения иностранным языкам. Просвещение.
4. Зимняя, И. А. (2004). Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании. Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов.
5. Леонтьев, А. А. (2005). Язык, речь, речевая деятельность. КомКнига.
6. Пассов, Е. И. (1991). Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. Просвещение.
7. Сафонова, В. В. (1996). Социокультурный подход к обучению иностранным языкам. Высшая школа.
8. Селевко, Г. К. (1998). Современные образовательные технологии. Народное образование.
9. Johnson, K. (2008). An introduction to foreign language learning and teaching. Routledge.
10. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and methods in language teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.